O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o‘rinbosari

_____ Z.Xaldarov

“___” _____2026 yil

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi OAK raisi v.v.b.

_____A.Shermuxamedov

“___” _____2026 yil

08.00.12 - “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon

D A S T U R I

TOShKENT – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Rayosatining 2026 yil “____”_____ -sonli qarori bilan tasdiqlangan

08.00.12-Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo‘yicha ilmiy darajalarga talabgorlar uchun malakaviy imtixon dasturi 2026 yil 9 fevraldagi Ilmiy kengash yig‘ilishida (3-bayonnoma) muhokama qilindi.

Tuzuvchilar: i.f.d., prof. Axmedov T.M.
Falsafa doktori (PhD) Yakubova E.T.

Toshkent - 2026

KIRISh

Mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi farovonligini oshirish, avvalo, iqtisodiy islohotlarni hududlar kesimida samarali amalga oshirish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki islohotlarning aniq natijalari ishlab chiqarishni joylashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda xizmatlar sifatini oshirish orqali aynan hududlar darajasida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, hududiy rivojlanish masalalari milliy iqtisodiy siyosatning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi.

Amalda hududlar o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining shakllanganligi, inson kapitali sifati hamda innovatsion faollik darajasi bo‘yicha jiddiy tafovutlar saqlanib qolmoqda. Ushbu nomutanosibliklar iqtisodiy islohotlarning hududlar kesimida turlicha samara berishiga olib kelib, ayrim hududlarda mavjud resurs va imkoniyatlarning to‘liq ishga solinmasligi, iqtisodiy faollikning past darajada qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, hududlarda mavjud salohiyat va raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish, ishga solinmagan resurs va imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni iqtisodiy aylanmaga jalb etish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda hududiy rivojlanish samaradorligi ko‘p jihatdan innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi bilan belgilanmoqda. Raqamlashtirish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish orqali hududlar iqtisodiy o‘sishining sifat jihatdan yangi bosqichiga chiqish imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion yechimlar va raqamli transformatsiya hududiy islohotlarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonlarni tizimli va izchil amalga oshirishda davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategik hujjatlar va hududiy dasturlar muhim instrument sifatida xizmat qiladi. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek tarmoq va hududiy rivojlanish dasturlari hududlarda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, ichki salohiyatni to‘liq ishga solish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga qaratilgan siyosatning institutsional asosini shakllantiradi. Ushbu hujjatlar hududiy rivojlanish maqsadlarini aniq belgilash, ustuvor yo‘nalishlarni tanlash va resurslarni manzilli taqsimlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, strategik va dasturiy hujjatlarning samaradorligi ularning ilmiy asoslanganligi, hududlarning real iqtisodiy holati va rivojlanish salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilishiga bevosita bog‘liqdir. Bu esa mintaqaviy iqtisodiyot sohasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, hududlarning ixtisoslashuvi, raqobat ustunliklari va o‘sish drayverlarini aniqlash, shuningdek innovatsion va raqamli rivojlanish modellarini ilmiy jihatdan asoslashni talab qiladi.

Dasturda mintaqaviy iqtisodiyot fanining ilmiy-nazariy asoslari, ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirish qonuniyatlari, mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni asoslash, mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishini ifodalovchi indikatorlar tizimini shakllantirish, O‘zbekiston mintaqalarining tashqi iqtisodiy aloqalari va ularning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari, mintaqaviy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish

mexanizmlari, O‘zbekiston mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari va hududlar salohiyati, ixtisoslashuvi va raqobat ustunliklarini baholash asosida o‘sish drayverlarini aniqlash kabi yo‘nalishlar o‘rin olgan.

Mazkur dastur 08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgor izlanuvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, hududiy rivojlanish jarayonlarini kompleks tahlil qilish, joylarda iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish hamda davlat hududiy siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladigan ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Dastur 08.00.12 - “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligi pasportiga tegishli bo‘lgan masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

MINTAQAVIY IQTISODIYoTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Mintaqaviy iqtisodiyot fani makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot fanlari bilan uzviy bog‘liq holda iqtisodiy bilimlar tizimining muhim tarkibiy qismi. Milliy iqtisodiyotni hududlar kesimida tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarning hududiy farqlari hamda iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning geoiqtisodiy xususiyatlari. Mintaqaviy iqtisodiyotning iqtisodiy geografiya, mintaqashunoslik, hududiy rejalashtirish va davlat hududiy siyosati bilan chambarchas bog‘liqligi, iqtisodiy fanlar tizimida hududiy yondashuvni shakllantiruvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish o‘rni.

«Mintaqaviy iqtisodiyot» fanining ob’ekti sifatida hududlar, mintaqalar, shahar va qishloq hududlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari, resurs bazasi, infratuzilmasi va institutsional muhiti. Fanning predmeti hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanishi, rivojlanishi, tarkibiy o‘zgarishlari va o‘zaro aloqadorligi. «Hudud» va «mintaqa» tushunchalarining mazmun-mohiyati, olimlarning mintaqa tushunchasiga nisbatan turli ilmiy yondashuvlari. Mintaqa ma’muriy-hududiy birlik, iqtisodiy hudud va funksional tizim sifatida. Mintaqa ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida kompleks va tizimli tahlilni taqozo etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy muhit.

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyalari – hududiy ixtisoslashuv va savdo nazariyalari, ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyalari, markaziy joylar konsepsiyasi, o‘sish qutblari nazariyasi, yangi iqtisodiy geografiya hamda hududiy rivojlanishning zamonaviy paradigmalari. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi, hududiy ekonometrik tahlil, optimizatsion modellar, ssenariy va prognozlash usullari. Hududiy qarorlar qabul qilishda dalillarga asoslangan tahlil, raqamli ma’lumotlar, geoaxborot tizimlari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodologik jihatlari.

O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISh XUSUSIYaTLARI

O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy salohiyat, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik, demografik vaziyat, mehnat bozori holati va innovatsion faollik darajasidagi farqlar. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha tabaqalanishi, hududiy nomutanosibliklarning geoiqtisodiy, iqtisodiy va institutsional sabablari. Aholi bandligi, mehnat salohiyati, migratsiya jarayonlari, aholi daromadlari va turmush sifati ko‘rsatkichlarining hududiy jihatlari.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reytinglari, indikatorlar tizimi va hududiy diagnostika masalalari. Reyting ko‘rsatkichlari past bo‘lgan tuman va shaharlarni aniqlash, ularning

geoiqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlanish traektoriyalarini belgilash. Kambag'allikni qisqartirishning hududiy mexanizmlari, ijtimoiy himoya va bandlik siyosatining hududiy jihatlari. Ekologik muammolar va ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.

HUDUDLARNING TARMOQ VA SOHA BO'YIChA RIVOJLANIShI

Mintaqalar iqtisodiyotining tarmoq tarkibi, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalari o'rtasidagi mutanosiblik. Hududlarning geoiqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda oqilona ixtisoslashuv. Tarmoqlararo kooperatsiya va qo'shilgan qiymat zanjirlarini hududlar kesimida shakllantirish. Sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyo bazasi asosida qayta ishlashni kengaytirish, qishloq xo'jaligida agrosanoat integratsiyasi.

Xizmatlar sohasi, turizm, savdo, logistika va yo'lbo'yi servis xizmatlarining hududiy rivojlanishdagi o'rni. Transport, energetika, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va ularning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri. Hududlarda iqtisodiy o'sishning geoiqtisodiy drayverlarini aniqlash masalalari.

INNOVATSION, INVESTITSION VA EKSPORT YO'NALIShLARI

Mintaqalar iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiya, raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati. Raqamli transformatsiya, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, hududiy samaradorlikni oshirish. Innovatsion infratuzilma, startap ekotizimlari va ilmiy-tadqiqot salohiyatining hududiy jihatlari.

Hududlarga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etish, investitsion muhit va institutsional kafolatlar. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, tashqi bozorlarga chiqishning geoiqtisodiy shart-sharoitlari. Eksport salohiyatini baholash, eksportga yo'naltirilgan klasterlar va sanoat zonalari.

URBANIZATSIYa VA ShAHARSOZLIKNI RIVOJLANTIRISh

Urbanizatsiya jarayonlari va shaharlar iqtisodiyoti. Shaharlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, shaharlar tipologiyasi. Shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi funksional va geoiqtisodiy aloqalar, aholi joylashuvi, mehnat bozori va xizmatlar oqimi. Shahar infratuzilmasi tarkibi, jamoat transporti tizimi, uy-joy siyosati, ijtimoiy xizmatlar sifati va ularning shahar iqtisodiyotiga ta'siri.

"Aqlli shahar" (Smart city) konsepsiyasi, raqamli shahar xizmatlari, shahar xo'jaligini boshqarishda axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlari. Shahar boshqaruvida raqamli platformalar, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar, transport, kommunal xizmatlar va xavfsizlik tizimlarini intellektual boshqarish.

Shahar hududlarini rejalashtirishda bosh reja va master-rejalarning o'rni. Bosh reja – shaharning uzoq muddatli hududiy rivojlanishini belgilaydigan strategik hujjat, yerdan foydalanish, funksional zonalash, transport va muhandislik-kommunikatsiya

infratuzilmasini joylashtirish asoslari. Master-rejalar – hududning rivojlantirish bo'yicha amaliy va bosqichli rejalashtirish hujjatlari, renovatsiya, jamoat makonlari, investitsiya loyihalari va hudud muhitini yangilash masalalari.

Qulay shahar muhitini shakllantirish, "yashil" shaharlar konsepsiyasi, energiya samaradorligi, barqaror shaharsozlik yondashuvlari. Ekologik barqarorlik, jamoat makonlari, piyoda va velosiped infratuzilmasi, transport yuklamasini kamaytirish, shahar muhiti sifati va aholi turmush darajasi.

HUDUDIY SIYoSAT, BOShQARUV VA PROGNOZLASh

Davlat hududiy siyosati va uni amalga oshirish mexanizmlari. Milliy, hududiy va mahalliy darajalarda boshqaruv tizimi. Markaz va hududlar o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, detsentralizatsiya va mahalliy hokimiyat organlari mas'uliyati. Natijaga yo'naltirilgan boshqaruv, KPI, hududiy monitoring va raqamli nazorat tizimlari.

Hududiy rivojlanish dasturlari, strategik rejalashtirish, prognozlash va ssenariy yondashuvlari. Mahalliy budjetlar, budjetlararo munosabatlar va hududiy moliyaviy mustaqillik masalalari.

HUDUDLARNI RIVOJLANTIRIShNING SAMARALI ShAKLLARI

Erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, maxsus iqtisodiy zonalar va klasterlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy institutsional shakllari. Ushbu institutlarning hududiy iqtisodiyotdagi o'rni, investitsiya faolligini rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq masalalar.

Erkin va maxsus iqtisodiy zonalarning hududiy rivojlanishdagi ahamiyati, soliq-bojxona imtiyozlari, yer va infratuzilma bilan ta'minlash mexanizmlari orqali investorlar uchun qulay muhit shakllantirilishi. Kichik sanoat zonalarining mahalliy ishlab chiqarishni joylashtirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash hamda hududlarda ishga solinmagan resurslardan samarali foydalanishdagi roli.

Klasterlar tizimining hududiy iqtisodiyotdagi o'rni, ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va xizmatlar sohalarining yagona qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasi. Klaster modellarining tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirish, texnologik yangilanishni tezlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishdagi ahamiyati.

Zonalar va klasterlar faoliyatining boshqaruv jihatlari, direksiyalar va ishtirokchi sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlari. Infratuzilma ta'minlanganlik darajasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, transport-logistika imkoniyatlari va ularning zonalar samaradorligiga ta'siri. Ishtirokchilar o'rtasida kooperatsiya aloqalari, mahalliylashtirish darajasi va ishlab chiqarish zanjirlarining hududiy chuqurlashuvi.

Hududiy lokalizatsiya jarayonlari, ishlab chiqarishni hududlarda jamlash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish orqali qo'shilgan qiymatni oshirish masalalari. Zonalar va klasterlar faoliyati samaradorligini

baholash mezonlari, investitsiya hajmi, bandlik, eksport ko‘rsatkichlari, texnologik yangilanish va hududiy iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasi.

Hududlarni rivojlantirishning samarali shakllarini takomillashtirish, zonalar va klasterlar faoliyatida mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari hamda hududiy iqtisodiy siyosat bilan uyg‘unlashtirish masalalari.

“MAHALLABAY” IShLASh

Erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, maxsus iqtisodiy zonalar va klasterlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim institutsional shakllari. Ushbu institutlarning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni, investitsiya muhitini yaxshilash, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarishni joylashtirish va iqtisodiy faollikni hududlar kesimida oshirish bilan bog‘liq jihatlari.

Investitsiya faolligi, kapital qo‘yilmalar hajmi va tarkibi, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini ta’minlash va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari. Texnologik yangilanish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish, innovatsiyalarni tatbiq etish va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshirish. Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish, tashqi bozorlarga chiqish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va hududlarning eksport salohiyatini oshirish jihatlari.

Zonalar va klasterlar faoliyatining boshqaruv jihatlari, maxsus direksiyalar, rezidentlar va davlat organlari o‘rtasidagi institutsional munosabatlar. Huquqiy, tashkiliy va ma’muriy mexanizmlar. Infratuzilma jihatlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, transport va logistika infratuzilmasi, energiya va resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi.

Kooperatsiya jihatlari, rezident korxonalar o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari, tarmoqlararo hamkorlik, mahalliylashtirish jarayonlari va qo‘shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish. Hududiy lokalizatsiya, ishlab chiqarishni hududlarda jamlash, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, mahalliy xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan foydalanish orqali hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari.

Erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, maxsus iqtisodiy zonalar va klasterlar faoliyatining natijadorligi, investitsiya, bandlik, texnologik rivojlanish va eksport ko‘rsatkichlari orqali baholash jihatlari, ushbu institutlarni hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish masalalari.

“YaShIL” IQTISODIYoTNI RIVOJLANTIRISh

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasi va uning nazariy-metodologik asoslari. Iqtisodiy o‘sish, resurslardan foydalanish va atrof-muhit muhofazasi o‘rtasidagi mutanosiblik. “Yashil iqtisodiyot”ning asosiy tamoyillari: resurs tejamkorlik, ekologik barqarorlik, past uglerodli rivojlanish, ijtimoiy inklyuzivlik va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik.

Resurs tejamkor texnologiyalar, energiya va suv sarfini qisqartirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh, shamol, biomassa va gidroenergiya, ularning hududiy imkoniyatlari. Energiya samaradorligi

ko‘rsatkichlari va ularni sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda uy-joy-kommunal sohalarda oshirish masalalari.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yer, suv va havo resurslarining holati. Ekologik xavflar, ishlab chiqarish va shaharlashuv jarayonlarining atrof-muhitga ta’siri. Iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik, cho‘llanish va suv taqchilligining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri.

Iqtisodiy qarorlarda ekologik omillarni hisobga olish, ekologik standartlar, “yashil” investitsiyalar, ekologik baholash va monitoring tizimlari. Hududiy rivojlanish strategiyalari va dasturlarida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini integratsiya qilish, barqaror rivojlanish maqsadlari hamda aholi salomatligi va turmush sifati bilan bog‘liq jihatlar.

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYaSI

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari. Sanoatning drayver sohalari, mahalliy xomashyo bazasi, urbanizatsiya jarayonlari, raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalari. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish. Davlat strategiyalari, maqsadli dasturlar va natijaviy ko‘rsatkichlarning hududiy rivojlanishdagi institutsional o‘rni.

TAVSIYa ETILADIGAN ADABIYoTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishlari
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari
5. Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari
6. Axmedov T.M. Regulirovanie territorialnoy organizatsii proizvoditelnыx sil i kompleksnogo razvitiya regionov Uzbekistana. T.: 1992.
7. Axmedov T.M., Xasandjanov K.A., Xakimov N.X.. Regionalnaya ekonomika: Uchebnoe posobie. – M.: izd. REA im. G.V.Plexanova. 2006. –231 s.
8. Axmedov T.M., Abdullaev B.S., Zokirov S.S., Sattarov R.A. Teoretiko-metodologicheskie osnovы ustoychivogo sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya selskix territoriy. Monografiya. Tafakkur nashriyoti. Tashkent, 2020. 200 s.
9. Yermoshina G.P., Pozdnyakov V.Ya. Regionalnaya ekonomika. Ucheb. pos. – M.: INFRA-M, 2012.-576.
10. Zokirov S.S. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlanti-rishning institutsional jihatlari // Strategicheskoe planirovanie – vajnыy faktor stabilnosti ustoychivogo sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya stranы i regionov: materialы mejdunarodnogo Foruma ekonomistov. –Tashkent:
11. Zokirov S.S. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda shaharsozlik siyosatining asosiy yo‘nalishlari //“O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: o‘tmish, hozirgi zamon va istiqbol” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, –Toshkent, 2007. 106-110 betlar.
12. Zokirov S. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish. Monografiya. Tafakkur nashriyoti, Toshkent, 2020.

13. Imomov V.A., Axmedov T.M., Olimjonov O.O. va boshq. Tuman va shahar salohiyatini baholash, ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va rejalashtirish usullari. Uslubiy-amaliy qo'llanma. IPMI, Toshkent. «Tafakkur» nashriyoti, 2019. 10,5 b.

14. Ishmuxamedov A.E., Rahimova M.R., Ishmuxamedova L.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik.- T. TDIU, 2007. 368 b.

15. Kadыrov A. i dr. Regionalnaya ekonomika. –T.: «LESSON PRESS», 2018g., 239 s.

16. Granberg A.G. Osnovы regionalnoy ekonomiki. M.: Izdatelskiy dom GU VShE, 2004 g.

17. Otaboev Sh.X. va boshq. Tuman (shahar) iqtisodiyotining o'sish drayverlarini aniqlash: metodologiya va amaliyot. - Toshkent:"Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2023 y. 224 b.

18. Pchelinsev O.S. Regionalnaya ekonomika v sisteme ustoychivogo razvitiya. M.: «Nauka», 2014 g.

19. Kalinnikova I.O. Upravlenie sotsialno-ekonomicheskim potensialom regiona: Ucheb. posobie - SPB:. Piter, 2012.-240 s.

20. Nazarov Sh. Metodologicheskie aspektы povыsheniya konkurentosposobnosti regionov. Tashkent, 2014. -212 s.

21. Nazarov Sh.X., Yakubova E.T., Otaboev Sh.X., Safarova N.N., Akilov O., Yuldashev O.B., Kamaletdinov U.M. "Hududlarni rivojlantirish strategiyasi", O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: Moliya, 2017 y

22. Nauchno-metodicheskie osnovы formirovaniya strategii sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya regionov na dolgosrochnuyu perspektivu. IMPI-PROON 2012.

23. Regionalnaya ekonomika. Pod red. Vedyapina V.N. M.: «INFRA», 2006g. 610 s.

24. Valiev B.B. O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. Dokt. dissert. 2021y. Toshkent.

25. Valiev B.B. Investitsiya strategiyasini ishlab chiqish hududlarda investitsion faollikni oshirish asosi // "UzBridge" elektron jurnali. 2-son. oktabr. 2019 yil. 47-58 b. (08.00.00; №29).

26. Sadыkov A.M. Osnovы regionalnogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika. Tashkent. Iqtisod-moliya, 2005 g.

27. Soliev A. va boshqalar. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Monografiya T. "Mumtoz so'z" 2010y.

28. Xamzina Sh.Sh., Shadiev K.X. Osnovы zelenoy ekonomiki. M.: Pervoe ekonomicheskoe izdatelstvo, 2020. - 244 s.